

**IQLIM O'ZGARISHLARIGA QARSHI KURASHISHDA QISHLOQ
HO'JALIGIDA BARQAROR AMALIYOTLAR
УСТОЙЧИВЫЕ МЕТОДЫ ВЕДЕНИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В
БОРЬБЕ С ИЗМЕНЕНИЕМ КЛИМАТА
SUSTAINABLE AGRICULTURAL PRACTICES IN THE FIGHT
AGAINST CLIMATE CHANGE**

Akramjonov Shohabbos

Акрамжонов Шохаббос

Akramjonov Shokhabbos

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

stajyor-o'qituvchi; преподаватель-стажер; intern-teacher

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda qishloq xo'jaligida barqaror amaliyotlarning ahamiyati va ularni amalga oshirishning samaradorligi tahlil qilinadi.

Аннотация. В статье анализируется важность устойчивых методов ведения сельского хозяйства и эффективность их внедрения в борьбе с изменением климата.

Abstract. This article analyzes the importance of sustainable practices in agriculture and the effectiveness of their implementation in combating climate change.

Kalit so'zlar. iqlim o'zgarishlari, barqaror qishloq xo'jaligi, ekologik amaliyotlar, suv resurslari, qurg'oqchilik, ekologik barqarorlik, iqlimga moslashish.

Ключевые слова. изменение климата, устойчивое сельское хозяйство, экологические практики, водные ресурсы, засуха, экологическая устойчивость, адаптация к изменению климата.

Keywords. Climate change, sustainable agriculture, ecological practices, water resources, drought, ecological sustainability, climate adaptation.

Kirish. Iqlim o'zgarishlari insoniyat va ekologiya uchun jiddiy tahdidlarga sabab bo'lib, uning qishloq xo'jaligi sohasiga ta'siri nafaqat ishlab chiqarish jarayonlariga, balki butun oziq-ovqat ta'minoti tizimiga ham bevosita ta'sir qilmoqda.

Asosiy qism. Qishloq xo'jaligi iqlim o'zgarishlarining eng sezilarli ta'sirini boshdan kechirayotgan soha bo'lib, bu o'zgarishlar ekinlar hosildorligini pasaytirish, hayvonot va o'simlik dunyosiga zarar yetkazish, shu bilan birga ekologik barqarorlikni buzish xavfini keltirib chiqaradi. Shu sababli, qishloq xo'jaligida barqaror amaliyotlarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Barqaror qishloq xo'jaligi deganda, tabiiy resurslarni samarali va mas'uliyatli boshqarishni, ekologik muvozanatni saqlashni va qishloq xo'jaligi faoliyatini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror tarzda rivojlantirishni anglatadi. Bu amaliyotlar, o'z navbatida, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlarining iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda qanday ahamiyatga ega ekanligi va ularning qanday amalga oshirilishi tahlil qilinadi.

Iqlim o'zgarishi O'zbekistonda ham qator salbiy oqibatlarga olib kelyapti:

- Harorat ko'tarilishi natijasida suvning bug'lanish koeffitsiyenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga ta'sir etmoqda
- Ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'paymoqda;
- Tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko'rsatkichlari tushib ketmoqda
- Atmosfera havosida katta maydonlarda changlanish ortmoqda
- Isish va sovish kabi anomal hodisalarning o'zgarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda.

Iqlim o'zgarishlarining qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilish uchun ekonometrik modeldan foydalanish mumkin. Bunday model yordamida quyidagi asosiy omillarni baholash mumkin:

- **Harorat va suv resurslari:** Haroratning ortishi va suv manbalarining kamayishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish. Ekonometrik tahlil orqali

haroratning oshishi va suvning bug‘lanish koeffitsiyentining kamayishi qishloq xo‘jaligi hosildorligiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilinadi.

- **Yog‘ingarchilik va tuproq namligi:** Yog‘ingarchilikning kamayishi va tuproqning namligi pasayishi o‘rtasidagi munosabatni baholash. Shuningdek, bu omillarni tahlil qilish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hosildorligi qanday pasayishi mumkinligi haqida prognozlar chiqarish.
- **Anomal haroratlar va hosildorlik:** Isish va sovish kabi anomal hodisalar qishloq xo‘jaligiga qanday salbiy ta’sir qilayotganini baholash. Buning uchun harorat o‘zgarishlari va hosildorlik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish mumkin.

Iqlim o‘zgarishlarining iqtisodiyotga ta’sirini o‘lchash uchun **panel ma’lumotlar modeli** yoki **regressiya tahlili** kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu tahlil orqali harorat, yog‘ingarchilik, tuproq namligi, va boshqa ekologik omillarning hosildorlikka qanday ta’sir ko‘rsatganini aniqlash mumkin.

Xulosa. Iqlim o‘zgarishlari O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, suv resurslari va hosildorlikni kamaytiradi. Ekonometrik tahlil haroratning ortishi va yog‘ingarchilikning kamayishi bu ta’sirlarni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Barqaror amaliyotlar va samarali siyosatlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi” qarori, 15.06.2017 yildagi 375-son

2. Toshpo‘latov D.Sh. Ekonometrikadan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma. A., Step by step print, 2024, 212 b.

3. Akramjonov S., Toshpulatov D. Ekonometrika fanini o‘qitishda innovatsion usullar //Scienceweb academic papers collection. – 2023.

4. D.Toshpo‘latov Sh.Akramjonov. Ekonometrika fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda spss dasturidan foydalanish. Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal 2023-yil №12/3 277 bet

5. Sh.Akramjonov. Ekonometrik tahlil orqali Andijon viloyatidagi Navigul korxonasining qayta ishlash faoliyatlari Экономика и социум" №11(126) 2024
ISSN 2225-1545